

MUHAMMAD YUSUF USLUBI HAMDA UNING SHE’RIYATIDAGI OBRAZLAR TIZIMINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Davletova Shalola Bahodir qizi,
Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 1-kurs tayanch doktoranti
shaloladavletova96@gmail.com

***Annotatsiya.** Har bir ijodkor lirik asarlari yaratilish jarayonida unga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa omillar mavjud bo‘lib bu uning uslubini belgilovchi omillardan biri sanaladi. Har bir badiiy asarning o‘ziga xos qirralari, uni boshqa yozuvchi shoirlar asarlaridan ajratib turuvchi jihatlari ijodkorlar uslubini belgilaydi.*

Obrazlar tizimi ham lirik asarlarda o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, obrazlar orqali ijodkorlar o‘z ruhiyatlarini yoki voqelikni turli badiiy portretlarda aks ettiradilar. Maqoladan shoir Muhammad Yusuf uslubi hamda she’riyatidagi eng ko‘p uchraydigan obrazlarning o‘ziga xos xususiyatlari bayoni o‘rin olgan.

***Kalit so‘zlar:** obrazlar tizimi, lolaqizg‘aldoq, badiiylik, uslub, xalqchilik, she’riyat, lirik asar.*

***Abstract.** There are socio-economic and other factors that affect the lyrical works of every artist, and this is one of the factors that determine his style. The unique aspects of each artistic work, the aspects that distinguish it from the works of other poets, determine the style of the creators.*

The system of images also has a special place in lyrical works, and through images, artists reflect their psyche or reality in various artistic portraits. The article describes the style of the poet Muhammad Yusuf and the characteristics of the most common images in his poetry.

***Key words:** system of images, tulip, artistry, style, folklore, poetry, lyrical work.*

Kirish. Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumani Qovunchi qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ilgan.

1976-yilda shoirning ilk she’ri “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etiladi. 1978-yilda o‘qishni bitirgach, O‘zbekiston kitobxonlar jamiyatiga muharrir bo‘lib ishga kiradi. Shoir 1980-1986 – yillarda “Toshkent oqshomi” gazetasi muxbiri bo‘lib faoliyat ko‘rsatadi va ayni yillarda uning ilk she’riy to‘plami “Tanish teraklar” (1985) chop etiladi. Shundan keyin shoir G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at tahririyati musahhihi (1986-1995) lavozimida, 1992-1995 – yillarda esa “O‘zbekiston ovozi” gazetasi muxbiri, 1995-1997 – yillarda “Tafakkur” jurali bo‘lim mudiri bo‘lib ishlaydi. Ushbu yillarda shoir barakali ijod qildi, uning ketma ket: “Bulbulga bir gapim bor” (1987), “Iltijo” (1988), “Halima enam allalari”, respublika Yoshlar tashkilotining mukofotiga sazovor bo‘lgan “Uyqudagi qiz” (1989), “Ishq kemasi” (1990), “Ko‘ngilda bir yor” (1991), “Bevafo ko‘p ekan” (1993), “Yolg‘onchi yor” (1993), “Erka kiyik” (1995) singari she’riy to‘plamlari chop etildi.

Uslub ([lotincha](#) stylus, yunoncha stylos - yozish uchun tayoq)-yozuvchining yozish uslubi, ongni ochish usuli, tasvirlar tizimining barqaror birligi. Ish uslubi, gazeta uslubi, fan uslubi va boshqa turlari bor. Adabiyotda badiiy vositalarning yaxlitligi metod sifatida qo‘llaniladi. A. Baytursinov “Adabiyotga kirish” asarida uslub haqida: “Bu har kimning o‘z so‘zlari, odatlari va marosimlari ro‘yxati borligidan dalolat beradi” degan edi. Tadqiqotchi Q. Jumaliev “Uslub – san‘at xususiyati” (1966) asarida yozuvchining yozuv uslubi, badiiy mahorati va iste’dodi, Z. Kabdolovning “Adabiyot nazariyasi asoslari” ijodkorga xos, o‘ziga xos uslub sifatida qaraladi. Muhammad Yusuf she‘rlari o‘ziga xos obrazlar tizimi va uslubga ega. “...uslub bu-individual xususiyat, so‘z, tarkib topgan jumla, she‘riyatda ishlatiladigan til, badiiy va tarixiy asarlardagi matn, tilning o‘ziga xos jihatlari aks ettiruvchi, ko‘rsatuvchi, ifoda etuvchi vosita, notiqlik san‘atidir” [1:16]. Har bir ijodkor kabi Muhammad Yusufning ham o‘z uslubi bor. U she‘rlarida oddiy so‘zlar orqali his-tuyg‘ularini juda o‘zgacha, xalqchil uslubda yoritib olgan ijodkordir. “Poetik idrok jamiyat, tabiat va inson o‘rtasidagi ko‘prikdir. Ijodkor ma‘lum bir asar yaratarkan, uning nigohi oddiy inson nigohidan chetda qolgan va u kuzatmagan, anglamagan holatlarni ocha boradi” [1:17]. Binobarin, shoir she‘rlari orqali insonlar qalbiga yo‘l topa oldi. U so‘zlarni bo‘yamadi, hamma tushunadigan sodda lekin samimiy tilda ijod qildi. Undagi shu samimiylik uni asrlarga muhrlagan omillardan biri edi.

Muhammad Yusuf she‘rlari uchun o‘ziga xos obrazlar tizimini yarata olgan ijodkordir. “Muhammad Yusuf ijodida kiyik, ohu, lola, suvpari kabi narsa, buyum, tushunchalar bilan bog‘liq obraz va detallar ko‘p uchraydi. “Bu kabi obraz, detal, va so‘zlarning shoir she‘riyatining yorqin tasvirlari bo‘libgina qolmay, jamiyat, tabiatga bo‘lgan munosabatini ochishga, shoir o‘zligining ifodasi bo‘lib jaranglashiga zamin yaratadi.” [1:29].

Asosiy qism. Muhammad Yusuf boshqalarnikiga o‘xshamaydigan, tabiat go‘zalliklaridan ilhomlangan holda she‘riyatida o‘zgacha obrazlar tizimini yarata oldi. Shoir ijodidagi “lolaqizg‘aldoq” obrazi o‘ziga xos ramziy ma‘noga ega timsollardan hisoblanadi. Shoir ko‘pincha uni qayg‘uga tushgan, tushkunlik holatida qo‘llaydi. Sababi bu gul tubida yoysimon qora dog‘ borligidir. “Jayron” obrazi ham shoir she‘riyatining yetakchi obrazlaridandir. Jayron tabiatning hurkak jonivori, juda beozor hamda juda go‘zal mavjudot. Lekin uning dushmanlari nihoyatda ko‘p, tabiatning yirtqich hayvonlaridan tortib, ovchi insonlargacha. Allohning mo‘jizasini qarangki, uning ko‘z qorachig‘lari o‘ziga rom etadigan darajada katta hamda qop-qora, tikilib tursangiz go‘yoki yoshi limmo-limdek. Shoir she‘riyatiga o‘zgachalik

bag‘ishlagan bu obrazlar shoirning o‘nlab she‘rlarida goh parallel ravishda, gohida esa alohida uchraydi:

	Lolaqizg‘aldoq	Jayron (kiyik, ohu)	Lolaqizg‘aldoq va Jayron
.	Lolaqizg‘aldoq	She‘riyat bu...	Jayron
.	Qizg‘aldoqlar qo‘ynida...	Tushlarimga kir	Qizg‘aldoq
.	Sevgi bamisoli...	Yolg‘onchi yor	Muhabbatim
.	Mana shu-men tug‘ilgan go‘sha...	Erka kiyik	
.	O‘g‘lonlar	Yurtim ado bo‘lmas armonlaring bor...	
.	Ota	G‘irot mingan Go‘ro‘g‘li	
.	Karnay yig‘lar	Surat	
.	O‘zbek qizlari	Hayvonot bog‘i	
.		Tillo sandiq	

Ushbu she‘rlarda lolaqizg‘aldoq obraziga nazar tashlaydigan bo‘lsak, shoir “O‘g‘lonlar” she‘rida Afg‘onistonda halok bo‘lgan o‘zbek o‘g‘lonlarini “Bir tuproqqa to‘kilgan qizg‘aldoqlar” deya ta‘riflaydi:

“Bir daryoga ulanmagan irmoqlar,
 Bir qiz sochin silamagan barmoqlar,
 Bir tuproqqa to‘kilgan qizg‘aldoqlar,
 Bevaqt qurbon bo‘lib ketgan o‘g‘lonlar” [10:54]

Bu yigitlar hali yosh edi. Hali oila qurmagan ya‘ni bir daryoga ulanmagan irmoq kabi, bir qizning sochini silashga ulgurmay, ko‘ksida armon bilan shahid bo‘lgan yigitlar xuddi bag‘rida qora dog‘i bor qizg‘aldoqlar singari bir tuproqqa to‘kildilar. Juda go‘zal tashbehdan foydalangan shoir, so‘zlarni munchoqdek teradi, hamda o‘quvchini chuqur hamdardlikka chorlaydi.

Yoki shoir “Yurtim ado bo‘lmas armonlaring bor...” deb boshlanuvchi she’rida “Jayrondek termulgan Cho‘lponlaring bor” deya Cho‘lponni osmonlardan turib ham yurtining diydoriga zor, Jayron kabi termulayotgan holda tasvirlaydi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, jayron ma’yus, chiroyli ko‘zlar, qop-qora qorachig‘larga ega ma’suma mavjudot. Cho‘lpon ham davrining nohaq qoralangan, ma’sum qurbonlaridan biridir, uning jayron singari tikilishi ham shundandir.

Shoir ijodida “Zebi” va “Ozoda” ismli qizlar obrazi, “yo‘lbars”, “qarg‘a”, “kapalak” obrazlari ham uchraydi. Quyidag jadval orqali ushbu obrazlar ishtirokida yozilgan she’rlar bilan tanishishingiz mumkin:

	Zebi	Ozoda	yo‘lbars	qarg‘a	Kapalak
.	Muddao	Ozoda	Mana shu-men tug‘ilgan go‘sha...	Azizimsan, baxtiyorimsan...	Kapalaklar
.	Zebi, Zebi...	Nima qilay (Muhammad Zoirga	Yolg‘onchilar	Yor-yor	Tunda she’r aytishdik kapalak bilan...
.	Zebijon				Atirguldan yumaladi kapalak...
.					Jonimda jon qolmas yugurib, yelib...
.					Bahorda ko‘p og‘ir...

Bu poetik obrazlarning har biri o‘z tabiatidan kelib chiqqan holda she’rlarda o‘ziga xos o‘rniga ega.

Muhammad Yusuf she’riyati xalq og‘izaki ijodi an’analari bilan sug‘orilgan bo‘lib, bu omil she’rlarining xalqchilligi yanada kuchaytirgan. Shoirning ko‘plab she’rlari shu ohangda yaratilgan bo‘lib, bu ularning musiqiylikini oshiradi. Xalq og‘zaki ijodiga yaqin bo‘lgan, uslubi, obrzlari yoki so‘zlaridan foydalanib yozilgan she’r, ijodkorning yutug‘idir. Bunday ijod mahsullari xalq orasida sevib o‘qiladi, musiqaga solinganida ham sevib tinglanadi. Shoir repertuarida bunday she’rlar

talaygina: “Yor-yor”, “Do‘ppi”, “O‘lan”, “Qora qumg‘on”, “Karnay yig‘lar...”, “Yog‘och beshik”, “Ro‘molingni bo‘yama...”, “Xalqona”, “Terma” kabi she‘rlar shular jumlasidandir.

“Terma” she‘ri o‘zbek xalq maqollari jamlanmasi bo‘lib, undan xalqimiz orasida asrlar osha yashab kelayotgan donishmand satrlar o‘rin olishi bilan birgalikda shoir o‘ziga xos ibratli mantiqiy butunlik yaratadi. U quyidagicha boshlanadi:

Yomon ko‘z tosh yorar der,
Yomon do‘st bosh yorar der.
Yomon erkak to‘y buzar,
Yomon ko‘z uy buzar der,
Yomon bo‘lsa yo‘ldoshing
Bor baxting ham to‘zar der.

Shoir atrofidagi insonlar va narsalardan ilhom oladi, tabiatni va uning mavjudotlarini sevar edi. Uning oila a‘zolari, do‘stlari va hamkasblari, qo‘shnilari va boshqa insonlarga bag‘ishlab yozilgan she‘rlari ham she‘riyatining ajralmas qismi bo‘lib, shoir shaxsiyatini namoyon qiladi. Bunday she‘rlar qatoriga uning “Madina” (Kenja qizim Madinaga), “Nima qilay” (Muhammad Zoirga), “Uyqudagi qiz” (Nurxon xotirasiga), “Yaxshi” (Xurshid Davronga), “Ko‘klamoyim” (Ozod Sharafuddinovga), “Uzr” (Nozimaga), “Ota” (Yusuf otaga), “To‘y” (Sirojga), “Bola” (Muhiddinga) va yana ko‘plab she‘rlarini misol keltirish mumkin.

Muhammad Yusuf she‘rlarida uning ikki obraz: vatan hamda ayolga bo‘lgan sevgisi beqiyosligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Nazarimizda, hech bir shoir bu ikki obrazni shoirchalik chin qalbdan tarannum etgan emas. U muhabbatini juda samimiy aybi vaqtda ta‘sirli izhor etadi. Hattoki uning “Qora qumg‘on” she‘ri ham sarlavhasiga qaramay aslida vatan madhiga bag‘ishlangan bo‘lib, qora qumg‘on milliylikimizga xos bo‘lgan, aslida zamirida vatan so‘zi nafas olayotgan predmetdir.

“Kelar davron, ketar davron,
O‘zingdan o‘zga yo‘q armon.
O‘zingdan o‘zgasi yolg‘on,
Qora qumg‘on, qora qumg‘on” [10:159]

“Qora Qumg‘on” milliy kaloritni ifodalovchi so‘z, u ilgari “o‘choq” da choy qaynatish uchun ishlatilgan va shuning uchun qorayib ketadigan choynak. Shoir “O‘zingdan o‘zgasi yolg‘on” deya milliylikimiz ifodalaridan bo‘lmish qumg‘onga murojaat qiladi. U aslida qumg‘onni emas, shu qumg‘onda choy qaynatib ichgan zahmatkash xalqini, vatanini sevadi. Shoirning shunga o‘xshash she‘rlari ham, aynan vatanni kuylovchi she‘rlari ham anchagina. “Shoir vatanga mehrini quruq tavsiflar

bilan, uni shunchaki madh etish bilan cheklanmaydi. Balki unga keng miqyosda yondashadi, uning tarixi, boshidan kechirgan turfa kechmishlarni alam va iztirob bilan, hassos bir ehtiros, bolalarcha kuyunchaklik bilan bayon qiladi. Uning she’rlarida otashin muhabbat, g‘urur, faxr, fidoyilik tuyg‘ulari bilan birga uzoq va yaqin o‘tmishda mamlakatning boshiga tushgan savdolar, uning obektiv va subektiv omillari, fojia va xiyonatlarning asl sababchilariga nisbatan cheksiz nafrat, alam, nadomat, afsus ohanglari qorishib ketadi” [3]. “...vatan haqidagi qo‘shiqlari minglab yoshlarni tarbiyaladi, to‘g‘ri yo‘lga soldi. “Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!” deb hayqirganda yuraklarga larza tushdi, vatan qadrini, ozodlik baxtini anglatdi.” deydi O‘zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo shoir haqidagi majmuada [4:52]

Shoirning muhabbat haqidagi she’rlarida ayriliq motivi yetakchilik qiladi. Uning “Tushlarimga kir”, “Sevgi sadosi”, “Maktub”, “Muhabbat, sen chiroyli...”, “O‘lsamu unutsang”, “Bir kecha”, “Kelinchak”, “Yolg‘onchi yor”, “Eslamasang ham meni...”, “Yor-yor”, “Osmon cho‘kib qoldi bu oqshom”, “Ketar bo‘ldim” kabi she’rlarda sevgilisiga yetolmagan oshiqning iztiroblariga guvoh bo‘lamiz. Lirik qahramon goh ilk sevgisi hajrida yonadi, sevganiga “yor-yor”lar aytib o‘zga insonga topshiradi, gohida esa “kechikkan sevgi” siga kuyinib anduh chekadi. Har bitta yurakni yoqadigan misralari allaqachon qo‘shiq bo‘lib, xalqimiz orasida sevib tinglanadi.

Xulosa. Muhammad Yusuf ijodida o‘ziga xos uslubi hamda obrazlar tizimiga ega ijodkor edi. Uning xalqchilik, soddalik, samimiylikka yo‘g‘rilgan uslubi tufayli u kitobxonlarning sevimli shoiriga aylandi, she’rlari kitob bo‘lishidan oldin qo‘shiq qilib kuylandi. Mohirona tanlangan obrazlar hamda o‘zgacha uslubi bilan shoir o‘zidan juda go‘zal she’riyat me’ros qoldirdi. Ta’kidlash joizki, shoir repertuaridagi barcha obrazlar tabiatniki, rayhon, qizg‘aldoq, kiyik, oy kabi obrazlar shoir she’riyatining ajralmas qismiga aylanib, qalblarimizdan chuqur joy egallagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Давронова М.И. Хозирги ўзбек шеърлятида индивидуал услуб поэтикаси (Усмон Азим, Икбол Мирзо, Фахриёр ва Абдували Кутбиддин шетрияти мисолида) Филол. фан. док. дисс. автореф. – Самарканд: 2019. – Б.16.
2. Muhammad yusuf she’riyati lingvopoetikasi. Shadiyeva D. Sh. 2007 dis. Filol.fan. nomzodi
3. “Muhammad Yusuf- vatan kuychisi” uslubiy qo‘llanma. S.Mahmudova, T.Haydarov, M.Yo‘ldosheva, Toshkent-2022.
4. Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida” Toshkent “Adib”, 2014, 52-bet.
5. MUHAMMAD YUSUF SHE’RIYATINING O‘ZIGA XOS USLUBI – Mingtepa

6. MUHAMMAD YUSUF SHE‘RLARIDA VATAN MADHI, YOSHLARDA VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH | Scientific Impulse (nauchniyimpuls.ru)
7. Muhammad Yusuf she'rlarida "Vatan", "Ona", "Opa-singil", "Sevgi-muhabbat", "Sadoqat" kabi insoniy tuyg'ularni bildiruvchi lingvokonsept (ilmiy maqola)
8. Muhammad Yusuf-Vatan kuychisi
9. S. Mahmudova, T. Haydarov, M. Yo‘ldoshev
10. “Qayda yursam yodi mehring ovunch bo‘ldi” Ustoz Muhammad Yusuf. – HURRIYAT (uzhurriyat.uz)
11. Saylanma, “SHARQ NASHRIYOT- MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI, TOSHKENT 2014 54-b
12. Sen qachon o‘zingni taniysan, elim? - Muhammad Yusuf haqida xotiralar (kun.uz)
13. Юракка кўмилар асл шоирлар: Муҳаммад Юсуф [Архив] - uForum.uz